



ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

Tashkent June 10, 2022

Proceedings of the international scientific online conference on

# INTERCULTURAL COMMUNICATION AND TOURISM



MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE  
DEPARTMENT OF INTERCULTURAL COMMUNICATION AND TOURISM  
NIZHNY NOVGOROD LINGUISTIC UNIVERSITY NAMED AFTER N.A.  
DOBROLYUBOV

Proceedings of the international scientific online conference on  
**“INTERCULTURAL COMMUNICATION AND TOURISM”**

---

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И  
ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ  
КАФЕДРА МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ И ТУРИЗМА  
НИЖЕГОРОДСКИЙ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ  
Н.А.ДОБРОЛЮБОВА

Материалы международной научной онлайн-конференции  
**«МЕЖКУЛЬТУРНЫЙ КОММУНИКАЦИИ И ТУРИЗМ»**

---

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI  
MADANIYATLARARO MULOQOT VA TURIZM KAFEDRASI  
N.A. DOBROLYUBOV NOMIDAGI NIJNIY NOVGOROD LINGVISTIKA  
UNIVERSITETI

**“MADANIYATLARARO MULOQOT VA TURIZM”**  
mavzusida xalqaro ilmiy onlayn anjuman materiallari

Tashkent June 10, 2022

“BOOKMANY PRINT”  
TOSHKENT – 2022

## **DISKURSIV SHAXS: TUSHUNCHA, STRUKTURA, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

**Abdulloyeva Kamola Mirxon qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Zamonaviy tilshunoslikda til va fikr o‘rtasidagi munosabat uzoq tarixga ega. Kognitiv-diskursiv lingvistik paradigma nuqtai nazaridan qaraladigan bo`lsa, lingvistik shaxsni o‘rganish ushbu munosabatning bir qismi sifatida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda nutqga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qiluvchi o‘rganishlarning aksariyati shaxsga e’tibor qaratadi. Ko`nikmalarining ahamiyati haqida turli olimlar o‘z fikrlarini turlicha ifodalaydilar.

**Kalit so ‘zlar:** muloqot, diskurs, lingvistik shaxs, ijtimoiy voqelik, strukturaviy nutq, konseptuallashtirish.

**Аннотация:** В современном языкоznании связь между языком и мышлением имеет давнюю историю. С точки зрения когнитивно-дискурсивной языковой парадигмы изучение языковой личности осуществляется в рамках этого отношения. Сегодня большинство исследований, анализирующих факторы, влияющие на речь, сосредоточены на личности. Разные ученые по-разному оценивают важность навыков.

**Ключевые слова:** общение, дискурс, языковая личность, социальная реальность, структурная речь, концептуализация.

Zamonaviy tilshunoslikning tilning antropotsentrizmiga yo’naltirilgan asosiy tushunchasi nutq hisoblanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, nutq va diskurs-tahlil muammosi tilshunoslikda keng muhokama qilinadigan mavzulardan sanaladi.

Tilda shaxsni o‘rganishdagi emg muhim bosqich – muloqot jarayonida uning pragmatik o‘ziga xosliklarini o‘rganishdan iborat sanaladi. Motivatsiya darajasida esa shaxsning til bilan aloqador bo‘gan pragmatizmi yuzaga chiqadi, natijada uning maqsadlarining ochib berilishi esa shaxsning rivojlanishidan dalolat beradi. Buni kommunikativ faol shaxsning ehtiyojlarida ko‘rish mumkin. Shaxs tomonidan dunyo haqida subyektiv tushuncha hosil qilishni anglatuvchi til pragmasi psixologik munosabatlar va aloqalarni o‘zida aks ettiradi.

Bilimlar manbai ma’lum lingvistik madaniyatdan foydalanuvchi jamoyaning tilida yangraydigan har bir so‘zda aks etadi. Bu kontekslar ijtimoiy-madaniy hamda kundalik foydalaniladigan so‘zlar (leksikon)ni qamrab oluvchi etnik o‘ziga xosliklardan iborat bo’ladi [1].

G. Lakoff esa Donald Trampning nutq faoliyatini tahlil qiladi va unda hech qanday tashqi ta’sirlarsiz nutq so‘zlay olish hamda samimiyl his-tuyg’ular orqali do’stona muhit yarata olish qobiliyati borligini ta’kidlab o’tadi. Shu sababli ham Prezident Trampning nutqi qismlarga bo’lingan hamda qisqa sintaktik birliklardan tashkil topadi va u ko’pincha pauzalardan foydalanadi [2].

Bu masalani yechishda turlicha yondashuvlar va qarashlardan foydalanish mumkin. Ma'lumki, nutq (diskurs) tushunchasidan birinchi marta mashhur ingliz olimi Xarris o'zining Diskurs — tahlil kitobida foydalangan. Bu olimning xizmati shundaki, u birinchilardan bo'lib, aloqaning asosiy birligi ravon matn ekanligi haqidagi qarashni yoqlagan. Diskursni "Muloqotdagi nutq" deb hisoblagan E. Benvenistning asarlari diskurs nazariyasi rivojlanishida muhim rol o'yagan.

Pragmatik daraja lingvopersonologik birlik vosita sifatida eng muhim hisoblanadi. Chunki shaxsning aksiologik ma'lumotlari aynan lingvistik pragmada jamlanadi. shaxsdan beri lingvopersonologik birlikning qurilmasi lingvistikada shaxsning aksiologik ma'lumotlari to'planadi [8].

Pragmatik birliklar lingvistik elementlar yoki so'zlar ham, lug'atdagi aqliy jarayon bilan bog'liq tushunchalar, fikrlar, mulohazalar kabilar ham emas. Pragmatik daraja birliklari til pragmasiga yo'naltirilgan bo'ladi hamda kommunikativ faol shaxsning ehtiyojlarida namoyon bo'ladi [9].

Shunga qaramay, bunday ehtiyojlarni qat'iy kommunikativ deb tavsiflash maqsadga muvofiq emas, chunki ehtiyojlar faqatgina ushbu shaklda mavjud bo'lmaydi. Global miqyosda lingvistik shaxs ijtimoiy-psixologik jihatdan boshqa bir shaxs bilan birlashishga intiladi, buning sababi esa « lingvistik shaxs – tilda ifodalangan hamda lingvistik vositalar orqali gavdalantirilgan shaxsdir» [10].

Biroq, lingvistik shaxs mavjud bo'lgan muhit inobatga olinadigan bo'lsa, unga aloqador bo'lgan barcha darajalar alohida yondashuv talab qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy muhitda mavjud bo'lgan pragmatik xususiyatlarni tadqiq qilinganda uning rivojlanishi hamda shaxsga ta'sir qiluvchi tildan tashqari (extralinguistic) omillarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik zarur.

"Diskurs" atamasi hozirgi kunda ko'plab tadqiqot sohalari, jumladan, falsafa, sotsiologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va boshqalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari, siyosiy munozaralar va kundalik muloqotda ham keng qo'llaniladi. Keng miqyosda tarqalganligi tufayli, murakkab etimologiyasi va uni qo'llaydigan fanlarning ko'pligi sababli "diskurs" tushunchasi mavzuga bog'liq holda turlicha talqin qilinishi mumkin.

Demak, diskursni ma'lum bir jamoada sodir bo'ladigan lingvistik va ijtimoiy hodisadir, deb tasavvur qilish mumkin. Bunday jamoalarning faoliyati asosan ularning tarixiy tajribasi, siyosiy madaniyati va iqtisodiy tizimi bilan bog'liq sanaladi. Bu omillar muloqot madaniyati va ma'lum bir joyda paydo bo'ladigan ommaviy axborot vositalari madaniyatini shakllantiradi jamiyatda nutqni qoidalari va amaliyotiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Madaniyat me'yorlar, qadriyatlar va odatlarning ochiq tizimi bo'lib, jamoa a'zolarining og'zaki va og'zaki bo'limgan xatti-harakatlari uchun ma'lumotlar bazasi sanaladi [11].

Yuqorida aytib o'tilganlarni hisobga olgan holda, diskursni shartli ravishda shaxslar tomonidan yaratilgan hamda muayyan madaniy xabarlar, hislar va ma'nolarni ifodalash imkoniyati beruvchi gnoseologik makon, deb ta'riflash mumkin. Shuningdek, uni bazi mutaxassislar "shaxs faoliyatini tartibga soluvchi usul bo'lib, ma'lum jamiyatda mavjud bo'lgan turli muloqot jarayonlarini qamrab oladi va muloqot uchun muhim bo'lgan tamoyillarni belgilab beradi. Shuningdek, muloqotning omma

tomonidan tan olinadigan vaziyatlari hamda og'zaki nutq me'yorlariga ham xizmat qiladi” [16].

Shunday qilib, diskurs ishtirokchilari jamiyatning madaniy tizimiga mos holda o'zlarini xohlaganday fikrlarini izohlashlari mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, diskurs muayyan jamiyatda sodir bo'lувчи ijtimoiy va lingvistik hodisa sanaladi. Bu jamiyatning nutq imkoniyatlari asosan ularning tarixi va geosiyosiy xususiyatlari, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy tizimlari bilan belgilanadi. Bu omillar siyosiy muloqot madaniyatiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Ushbu holatda madaniyat tushunchasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, u qadriyatlar va urf-odatlarning ochiq tizimi sifatida xulq-atvor me'yorlarini belgilab beradi.

Binobarin, qanday qilib qadriyatlar, xattoki bilimlar tilda qanday qilib ifodalanadi va ularni tilni trahlil qilish orqali qanday aniqlash mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Qadriyatlar shaxsga yo'nalish ko'rsatish orqali xulq-atvorini belgilab berishini hisobga oladigan bo'lsak, bundan kelib chiqadiki, ular voqelikni turkumlashtirish va konseptuallashtirishda faol ishtirok etadi, chunki aynan ular muayyan jamiyat uchun nimalar muhimligini ko'rsatib beradi [12; 13; 14].

Qadriyatlar va ko'nikmalar tilda o'zgaruvchan bo'lib, obyektlar, hodisalar va odamlarga xos xususiyatlarga asoslanib qayta tashkil qilinishi mumkin. Tilshunoslik tomonidan tahlil qilinadigan lingvistik bilimlar ba'zi zarur elementlarni, jumladan, stereotipik va baholovchi kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, bilim, o'z navbatida, muayyan jamiyat a'zolari tomonidan o'zlashtiriladiga tilni o'zlashtirish samarasini hisoblanadi [15].

Lingvistik dunyoqarash voqelikning tilga asoslangan talqini bo'lib, uni borliq, odamlar, narsalar, hodisalar to'g'risidagi qarashlar to'plami sifatida izohlash mumkin. Bu aks ettirish emas, balki talqin etishdir, narsalarning haqiqiy fotosurati emas, balki subyektiv portreti sanaladi. Ushbu tilda so'zlashuvchilarning voqelikni subyektiv idrok etishi va konseptuallashtirishi natijasida talqin yuzaga keladi, shuning uchun u shubhasiz subyektiv va antroposentrikdir. Ammo u ma'lum ma'noda intersubyektiv hamdir, chunki u jamoaviy tarzda muayyan ijtimoiy guruh a'zolarini bir-biriga bog'laydi hamda ularning fikrlari, his-tuyg'ulari va qadriyatlarini bo'lishishlarida ishtirok etadi. Shuningdek, lingvistik dunyoqarash, o'z navbatida jamiyat a'zolarinining ijtimoiy voqelikni idrok etishi va tushunishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, diskurs (nutq):

➤ muayyan madaniy jamiyatda lingvistik (matnlar) hamda tildan tashqari faoliyatlar orqali yaratiladi;

➤ jamiyatdagi ijtimoiy voqelik (shaxslararo munosabatlar) va madaniy voqelikni aks ettiradi, shuningdek, voqelikni konseptuallashtirish strategiyalarini taqdim etish orqali madaniyatga ta'sir qiladi;

➤ qadriyatlari hamda qarashlariga ega bo'lgan ijtimoiy va madaniy sohada faoliyat yurituvchi alohida subyektlar faoliyatidan kelib chiqadi.

Diskurs tadqiqotlari muloqot tahlilining ko'plab yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Ularning asosiy tendensiyalari quyidagilar bo'lishi mumkin:

➤ tizimli (structural)

➤ mavzulashtirilga (topical)

➤ vaziyatga oid (situational)

Strukturaviy nutq - bu monolog va dialogda bir-biridan farq qiladigan kommunikativ harakatlар ketma-ketligi sanaladi. Shu bilan bir qatorda, og'zaki va yozma shakllarda bo'lisi mumkin. Bunday nutqiy tadqiqotlar keng tarqalgan va ular murakkab birikma sifatida qabul qilingan matnlar tahlilidan iborat bo'ladi. Bunda asosiy urg'u o'rganilayotgan matn qismlari tavsifiga hamda ushbu qismmlar o'rtasidagi aloqaga qaratiladi. Diskurga strukturaviy yondashuvning asosiy xususiyati matndan farqli ravishda diskurs kategoriyalari sanaladi. Bunda izchillik va uyg'unlik, nutqni rivojlantirish bilan bog'liq tavsif va bayon usullari, faktlar va g'oyalarni aniq va yashirin ifodalash kabilarga e'tibor qaratiladi.

Mavzulashtirilgan diskurs - bu biror narsa to'g'risidagi muloqot, va diskursni ushbu nuqtai nazardan o'rganish odamlar gapiradigan havola mazmunini tahlil qilishni anglatadi. Amalda diskurs tahlili odamlar o'z nutqida tushunchalarni ifodalash uchun foydalanadigan so'zlar hamda iboralarni o'rganishga asoslanadi. Vaziyatga oid diskurs - bu nima deyilganiga emas, balki qanday aytilganligiga ko'proq urg'u qaratiladigan yondashuv hisoblanadi. Nutqqa situatsion yondashuv tilshunoslikda paradigma o 'zgarishining mantiqiy rivojlanishidir.

Nutqqa situatsion yondashuv muloqotdagи ishtirok etuvchi shaxslarni yaqindan o'rganish imkonini beradi. Bunday holatda inson turli – biologik, ijtimoiy va ruhiy xususiyatlarning kombinatsiyasi sifatida qaraladi. Aniqroq qilib aytganda, bu yaxlit birlikning turli o'ziga xosliklari birlashmasini o'rganish hisoblanadi. Bu xususiyatlar fanning turli sohalari – psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, madaniyatshunoslik kabilarda o'rganiladi va ularning har biri lingvistik jihatdan og'zaki nutq jarayoniga oid bo'lган va nutqqa oid bo'lмаган qirralarga ahamiyat qaratadi.

Odamlar psixologik jihatdan turlicha bo'lisi mumkin va ular shaxsning biologik, ijtimoiy va ruhiy xossalari bilan bevosita bo'gлиq bo'lган temperament (tabiiy xususiyatlar), qobiliyatlar (intellektual, irodali va hissiy xususiyatlar) iga ko'ra har xil guruhlarga ajratiladi. Psixologik jihatdan shaxsning dinamik va statik tushunchalarini bir-biridan farqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dinamik xususiyatlar inson o 'z-o'zini anglashidan boshlanib o 'z nazoratini tabiiy ravishda yo 'qotishiga bo 'lgan jarayonni anglatadi. Ikkinchisi esa shaxsning yuqorida ta'kidlab o 'tilgan turli sifatlarini o'zida jamlaydi.

Mutaxassislar shaxslarni har xil parametrлarga ko'ra turlicha tasniflashadi. Rus olimining ta'kidlashicha, insonlar quyidagi turlarga bo'linadi:

- ✓ xushmuomala
- ✓ aggressiv
- ✓ idrokli

Xushmuomala odamlar kelishmovchiliklarni oldini olish uchun barcha narsaga tayyor bo'ladi, aggressiv kishilar esa doim o 'z sheriklari ustidan hukmronlik qilishga harakat qilishadi. Idrokllilar esa ko'pincha qiyin vaziyatdan chiqib ketish uchun hazil, ya`ni yumordan foydalanishadi [18].

Shaxsning sotsiologik tasnifi ham ko'p va xilma-xil sanaladi. Ularni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- 1) ijtimoiy maqomiga ko'ra;

- 2) kasbiy muloqot doirasiga ko'ra;
- 3) tildan foydalanish darajasiga ko'ra.

Ijtimoiy maqom kategoriyasi shaxsning tug'ilgandan keyin ega bo'ladijan sifatlarini o'z ichiga oladi va u yosh, jins va etnik kelib chiqish, ya'ni irq kabilalar bilan xarakterlanadi. Keying kategoriya esa shaxslarning ta'limi, iqtisodiy holati va boshqa turli darajalari bilan belgilanadi. Har bir xususiyat nutqiy va nutqqa oid bo'limgan belgilarni o'zida mujassam qiladi. Kommunikativ vaziyatning har bir ishtirokchisi uchun semiotik jihatdan ixtisoslashgan so'zlar va iboralar mavjud, masalan, murojaat shakllari, qisman statusni beldiruvchi muayyan so'zlar (masalan, so'zlovchining ta'lim darajasini ko'rsatuvchi nutqda foydalaniladigan atamalar, ya'ni terminlar) va kundalik nutqda ishlatiladigan hamda ijtimoiy maqomga umuman aloqador bo'limgan lingvistik birliklar ba'zan so'zlovchininh qaysi sinfga kirishini belgilab beruvchi xususiyatga (tasodifiy nutqdagi muayyan talaffuz) ega bo'lishi mumkin.

Lingvistik shaxsning shakllanishiga ta'sir qiluvchi ko'plab omillar mavjud bo'lib, shaxsning yoshi va jinsi shular jumlasidandir. Chunki jins xususiyatlar so'zlovchining nutq qobiliyatida namoyon bo'ladi, zotan qiz va o'g'il bolaning lingvistik shaxsiyati turlicha ifodalanishi mumkin. O'z navbatida lingvistik shaxsn rivojlanishidagi yosh xususiyatlari ham alohida e'tibor qiluvchi omillardan sanaladi. Shuni ta'kidlash joizki, lingvistik shaxsning shakllanishiga, ayniqsa, ekstralolingvistik omillar ta'sir ko'rsatadi. Odatda lingvistik shaxsning rivojlanishi va takomillashuviga ta'sir ko'rsatuvchi sifatida lingvistik omillarga ahamiyat beriladi. Xullas, lingvistik shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga bola oilasiga aloqador bo'lgan oila nutqi, ayniqsa ota-ota, shuningdek, tez-tez uchrashib turadigan boshqa insonlarning harakatlari, odamlarning nutqi va hissiyotlari, maktabgacha ta'lim, bolaning qiziqishlari, kognitiv jarayonlar kabilar kiradi. Shuningdek, kommunikativ va pedagogik omillar lingvistik shaxsni shakllantiruvchi lingvistik omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Lingvistik shaxs tushunchasining mohiyati nutqiy matnlarni yaratuvchi hamda qabul qiluvchi shaxsning xarakter xususiyatlari hamda qobiliyatlarini yig'indisini anglatadi. Ularni strukturaviy hamda lingvistik murakkablik, haqiqatni aniq va teranroq ifodalash xususiyatlari orqali farqlash mumkin. Ko'pchilik tadqiqotchilar lingvistik shaxs tuzilishining uchta darajasini taklif qiladi:

1. Verbal-semantik
2. Lingvokognitiv
3. Pragmatik

Xulosa qilib aytganda, lingvistik shaxs inson nutq qobiliyati rivojlanguncha hamda tafakkuri mavjud bo'lgan davrda shakllanadigan psixolingvistik kategoriya bo'lib, yetuklik jarayoni davomida bir qancha bosqichlardan o'tadi. Lingvistik shaxsiyat til orqali shaxsni aniqlovchi jarayon sanaladi. Lingvistik shaxsga xos bo'lgan xususiyatlarni o'rghanish uchun unga ta'sir qiluvchi omillar hamda ilmiy xossalalarini tahlil qilish hamda tajriba orqali turli darajalarni tadqiq etish zarur.

#### **REFERENCES**

1. Boldyrev, N. N., & Dubrovskaya, O. G. (2016). Sociocultural Commitment of Cognitive Linguistics via Dimensions of Context. *ILHA DO DESTERRO: A Journal*

of English Language, Literatures in English and Cultural Studies, 69(1), 173–182.

2. Lakoff, G. (2016). Understanding Trump [Blog post]. Retrieved from <https://georgelakoff.com/2016/07/23/understanding-trump-2/>
3. Barabash, V.V., Kotelenets, Elena A., Karabulatova, Irina S., Lavrentyeva, Maria Y., Mitina, Yulia S. (2019). The confrontation between the Eastern and Western worldviews in the conceptual space of the information war against Russia: the genesis and evolution of the terminological apparatus. *Amazonia investiga*, Vol. 8 Núm. 19: 246 - 254 / Marzo - abril 2019, p.246 – 254.
4. Harris Z. S. Discourse analysis // Papers on syntax. Dordrecht: Springer, 1981. 107-142. [https://doi.org/10.1007/978-94-009-8467-7\\_7](https://doi.org/10.1007/978-94-009-8467-7_7)
5. Бенвенист Е. Общая лингвистика. М., 2002. 446 с.
6. Арутюнова Н. Д. Дискурс. М.: Большая Российская энциклопедия, 2000. С. 136-137.
7. Гинзбург Е. Л. Исследования структуры словообразовательного гнезда // Проблемы структурной лингвистики. 1972. С. 146-225.
8. H. G. Widdowson, Discourse analysis. Oxford: Oxford Univ. Press. 185 p. 2008.
9. O.M. Akay, “To the question of a category of number of abstract nouns in modern English”, Philological science. Theory and practice, No. 6, 2016.
10. M.N. Krylova, “Ways of expression of emotions in social networks”, *Philologia i literaturovedenie*, No. 1, 2017.
11. Waldemar Czachur (University of Warsaw). Discourse linguistics and the discursive worldview. *A Journal of Language and Literature*, 4 (2016), pp. 16-32
12. Bartmiński, Jerzy. 2012. *Aspects of Cognitive Ethnolinguistics*. London: Equinox.
13. Krzeszowski, Tomasz P. 1999. *Aksjologiczne aspekty semantyki językowej*. Toruń:  
Uniwersytet Mikołaja Kopernika.
14. Puzynina, Jadwiga. 1992. *Język wartości*. Warszawa: PWN
15. Bartmiński, Jerzy. 2003. “Miejsce wartości w językowym obrazie świata.” In *Język wkręgu wartości. Studia semantyczne*, edited by Jerzy Bartmiński, 59-86. Lublin: Wydawnictwo UMCS.
16. Wojtak, Maria. 2004. *Gatunki prasowe*. Lublin: Wydawnictwo UMCS.
17. Wojtak, Maria. 2010. *Głosy z teraźniejszości. O języku współczesnej polskiej prasy*. Lublin: Wyższa Szkoła Przedsiębiorczości i Administracji.
18. Sedov K.F. (1999). *Formation of discursive thinking of language person: psycho- and sociolinguistic aspects*. Saratov: Publishing House of Saratov University
19. Khursanov, N. I., & Gulyamova, Sh. B. (2021). Linguistic classifications related to discourse and its classifications. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (102), 825-829. <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2021.10.102.92>

## MUNDARIJA

<b>TOURISM AND EDUCATION: INTERACTION AND DEVELOPMENT PROSPECTS</b> <b>ТУРИЗМ И ОБРАЗОВАНИЕ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ</b>	
<b>TURIZM VA TA'LIM: O'ZARO TA'SIR VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</b>	
<b>Normurodova Z.N., Khudjakulova N. Kh., Ermatova D.Z.</b> The Role of Translation, Education in Developing of Gastronomic Tourism.....	5
<b>Rahimova N.A., Raximov Z.A.</b> Turizm sanoatining tiklanishi: pandemiya va ekologik muammolar.....	11
<b>Tairova F.F., Abdullayeva Ch.B.</b> Madaniyatlararo aloqaning turizmdagi o'rni, turizm ta'limi va fanining mazmuni.....	18
<b>INTERNATIONAL EXPERIENCE IN PILGRIMAGE</b>	
<b>TOURISM MANAGEMENT: TRADITIONS AND INNOVATIONS</b>	
<b>МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ ПАЛОМНИЧЕСКИМ</b>	
<b>ТУРИЗМОМ: ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ</b>	
<b>ZIYORAT TURIZMI BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBASI:</b>	
<b>AN'ANALAR VA INNOVATSIYALAR</b>	
<b>Sodiqova G.I., Norqobilov A.B.</b> Ichki turizm masalalari.....	23
<b>Xojaqulova N.X., Shonazarova D.</b> O'zbekistonda ziyorat turizmini shakllantirishning muhim omillari.....	26
<b>INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE SYSTEM OF INTERNATIONAL</b>	
<b>TOURISM IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION</b>	
<b>В СИСТЕМЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ</b>	
<b>GLOBALLASHUV SHAROITIDA XALQARO TURIZM TIZIMIDAGI</b>	
<b>MADANIYATLARARO ALOQALAR</b>	
<b>Quraqova Sh.D.</b> Turizm sohasida piktografik yozuvlarning ahamiyati.....	31
<b>Nuraliyeva Sh.E., Niyazova F.</b> Globallashuv sharoitida xalqaro turizm tizimidagi madaniyatlararo aloqalarda til, madaniyat va ingliz tili o'rganishning o'rni.....	36
<b>Berdikulov M.A.</b> Legal aspects of development of tourism in Uzbekistan in the context of globalization.....	38
<b>Saydullayeva M.B., Khakimova S.</b> The role of idioms in intercultural communication.....	43
<b>BILINGUALISM AND INTERCULTURAL COMMUNICATION</b>	
<b>БИЛИНГВИЗМ И МЕЖКУЛЬТУРНОЕ ОБЩЕНИЕ</b>	
<b>BILINGVIZM VA MADANIYATLARARO MULOQOT</b>	
<b>Raupova L.R., Safarrova G.Q.</b> Til va jamiyat aloqalarida ikki tillilik.....	49
<b>Imyaminova Sh.S., Karimova O.N.</b> Nemis tilida idiomalarning lingvomadaniy tahlili.....	53
<b>Saidxonov M.M.</b> Madaniyatlararo muloqot va imo-ishoralar lug'ati.....	58
<b>Kadirova X.</b> Badiiy tarjimada evfemizm va dizfemizmning almashinuv muammolari.....	62
<b>Nancy Ackles.</b> Cultural factors affecting acceptance of change in language teaching.....	69

<b>Qalandarova S.T.</b> Harbiy ta'lim mutaxassislik kursantlarining lingvomadaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	73
<b>Niyazova G.</b> Detektiv asarlarning jahon tilshunosligida lingvistik aspektida o‘rganilishi.....	79
<b>Davletnazarova L.B.</b> Konsept milliy madaniy tushuncha sifatida.....	84
<b>Abdusalamova L.A.</b> Chingiz Aytmatov ijodida odorokolofonistik birliklarning badiiy-estetik vazifalari va ularni o‘rganishning dolzarbligi haqida.....	88
<b>Axmedova N.A.</b> Ingliz tilida farmasevtika atamalarni o‘rganishning zamonaviy usullari.....	91
<b>Davletnazarova L.B.</b> Ingliz tilidagi “tolerance” va “patience” konseptlari tadqiqiga oid.....	97
<b>Saparniyozova M., Umurzakova S.A.</b> Bilingvism va madaniyatlararo muloqot.....	101
<b>Borasulova D.D., Normingiyeva S.S.</b> Importance of phraseological units and its classification principles.....	107
<b>Davletnazarova L.B.</b> Ingliz va o‘zbek madaniyatida “tolerantlik” konseptsiyasining leksik ifodalananish usullari.....	111
<b>Tillayeva S.Z., G‘aybullayeva G.T.</b> Maktabgacha ta’lim yo’nalishidagi talabalarga bog’cha yoshidagi bolalarga chet tilini o‘rgatish metodlarini o‘qitish va bolalarda bilingvismni rivojlantirish.....	114
<b>Xoliqov B.A., Khojakulova N.X., Tursunova N.Sh.</b> The significant role of onomastic units in Uzbek and English.....	118
<b>Reymov B.Kh., Ergasheva S.</b> Ingliz tilida somatik frazeologik birliklar.....	123
<b>Samatova Sh.R.</b> Ingliz va o‘zbek tillarida polisemantik so‘zlar.....	127
<b>Axmedova Z.A.</b> Bilingvism va interferensiya.....	130
<b>Jamoliddinova I.B.</b> O‘zbek tili lingvokulturologiyasida belgi bildiruvchi so‘zlardagi qat’iyatning ifodalaniishi.....	134
<b>Halimova S.R., Qosimov A.</b> Ingliz tilini o‘rganish jarayonida eng ko‘p duch kelinadigan muammolar.....	137
<b>Ismoilova M.Q., Nuftillayev B.U.</b> O‘zbek tili ijtimoiy va kommunikativ makonda.....	139
<b>DISCOURSODY AND CORPUS LINGUISTICS</b> <b>ДИСКУРСОЛОГИЯ И КОРПУСНАЯ ЛИНГВИСТИКА</b> <b>DISKURSOLOGIYA VA KORPUS LINGVISTIKASI</b>	
<b>Sultonova Sh.</b> Новый подход к созданию электронных лингвистических словарей.....	145
<b>Kadirova X.B., Beysenova A.</b> O‘zbek va rus tillarida olmoshlar: nisbiy olmoshning qo‘llanilish xususiyatlari.....	148
<b>Kuchkarova M.D.</b> Teacher’s speech parts: their structure and features.....	152
<b>Xakimova S.I.</b> O‘zbek va ingliz tilidagi oq va qora ranglarining lingvakulturologik xususiyatlari.....	155
<b>Abdulloyeva K.M.</b> Diskursiv shaxs: tushuncha, struktura, rivojlanish tendensiyalari.....	159

<b>Ismatov A.F.</b> Ertak diskursi va uning boshqa diskurs turlari bilan aloqasi.....	<b>165</b>
<b>Normurodova N.Z., Xodjakulova N.X., Makhmudova U.A.</b> Translation problems of recreating nationally marked units in literary discourse.....	<b>169</b>
<b>Normurodova N.Z., Xodjakulova N.Kh., Mamarasulov T.</b> Verbal analysis of political discourse: problems and solutions.....	<b>174</b>
<b>Davletnazarova L.B.</b> Konsept va uning tuzilishi.....	<b>178</b>
<b>Abdullayeva U.R.</b> The main linguistic and stylistic features in translating political discourse.....	<b>182</b>
<b>Ismatov A.F.</b> Ertak turlari ertak diskursining janr yaratuvchi elementi sifatida..	<b>185</b>
<b>G'afforov N.N.</b> O'zbek tilining umumiy lug'atlarida sport terminlarining ifodalananishi.....	<b>190</b>

**TRANSLATION STUDIES IN THE CONTEXT OF INTERCULTURAL  
COMMUNICATION**

**ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ В КОНТЕКСТЕ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ  
TARJIMASHUNOSLIK VA MADANIYATLARARO MULOQOT**

<b>Bumatova A.M.</b> The poetic of a stanza translation.....	<b>196</b>
<b>Abdulloyeva K.M.</b> Zamonaviy lingvistika kontekstida kognitiv tadqiqotlar rivoji.....	<b>200</b>
<b>Borasulova D.D., Teshaboyeva Z.</b> "Firdavs ul-iqbol" asarining o'zbek olimlari tomonidan o'r ganilishi.....	<b>204</b>
<b>Borasulova D.D.</b> "Firdavs ul-iqbol" asarining dunyo olimlari tomonidan o'r ganilishi va Y.Bregel tarjimasi.....	<b>207</b>
<b>Norbekova F.Sh.</b> Challenges in guiding interpretation and their solution.....	<b>209</b>
<b>Norbekova F.Sh.</b> Oral translation competence of a tour guide.....	<b>212</b>
<b>Xudoqulova D.K.</b> Akronim va abbreviaturalarning tarjimada qo'llanilishi.....	<b>216</b>
<b>Usmonova M.U., Xoliqov B.A.</b> Sinonimlarni tarjima qilishning ba'zi muammolari.....	<b>220</b>
<b>Xodjakulova N.X., Shonazarova D.D.</b> Syntactic problems in simultaneous interpretation (on the example of English and Uzbek languages).....	<b>223</b>
<b>Hikmatova N., Qosimov A.</b> Tarjimashunoslikning ahamiyati.....	<b>226</b>
<b>Husanova M.M., Lolayeva G.G., Khusanova M.M.</b> The importance of translation in the elimination of cultural disputes.....	<b>230</b>

**INNOVATION AND TOURISM  
ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ТУРИЗМ  
INNOVATSION FAOLIYAT VA TURIZM**

<b>Saidmamatov O.A.</b> Ecotourism in aral sea region of uzbekistan: problems and opportunities.....	<b>233</b>
<b>Abdullayeva U.R.</b> Globallashuv davrida madaniyatlararo muloqot: biznesda va sayohatda.....	<b>237</b>
<b>Sadikova G.I., Jalilova D.B.</b> Innovational activities and tourism.....	<b>240</b>

Proceedings of the international scientific online conference on  
**“INTERCULTURAL COMMUNICATION AND TOURISM”**

---

Материалы международной научной онлайн-конференции  
**«МЕЖКУЛЬТУРНЫЙ КОММУНИКАЦИИ И ТУРИЗМ»**

---

**“MADANIYATLARARO MULOQOT VA TURIZM”**  
mavzusida xalqaro ilmiy onlayn anjuman materiallari

**Tashkent June 10, 2022**

**“Bookmany print” nashriyoti**

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 27.06.2022.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84  $\frac{1}{16}$

Nashriyot bosma tabog‘i 18. Shartli bosma taboq 15,2.

Adadi 50 nusxa. offset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany\_print@mail.ru

 t.me/ Bookmanyprint  +998 99 180 97 10



ISBN 978-9943-8396-8-7

A standard linear barcode representing the ISBN number.

9 789943 839687